

2020- yilning yanvar-sentabr oylarida O'zbekiston Respublikasida xizmatlar sohasining rivojlanishi

Iqtisodiyotda xizmatlar sohasi o'sishining asosiy omillarini ilmiy bilimlar, nomoddiy shakldagi to'plamlar, axborot texnologiyalari va tadbirkorlik faoliyati integratsiyasi kabilar tashkil etadi.

Iqtisodiyotning ushbu sektori turli xil faoliyat turlarini o'z ichiga olib, ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga yordam beradi. Ushbu faoliyatning yakuniy natijasi tayyor mahsulot emas, balki ko'rsatilgan xizmatlardir. Xizmatlar nafaqat korxonalarga, balki jismoniy shaxslar - yakuniy iste'molchilarga ham ko'rsatilishi mumkin.

2020- yilning yanvar-sentabr oylarida xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi



Xizmatlar sohasi bu — korxonalar, tashkilotlar, shuningdek, jismoniy shaxslar tomonidan ko'rsatiladigan turli xil xizmatlar, ishlab chiqarishni o'z ichiga olgan umumlashtirilgan toifadir. Ushbu sohani ko'pincha rivojlangan zamonaviy infratuzilma tufayli sanoatdan keyingi iqtisodiy tuzilma tarzida ko'riladi.

Ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari


Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2020- yilning yanvar-sentabr oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 157 085,3 mlrd. so'mga yetdi. Uning nominal hajmi 16 126,8 mlrd. so'mga oshdi.

Taqqoslama ekvivalentda o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 101,8 % ni tashkil etdi.



Xizmatlar — iste'molchilar (yuridik va jismoniy shaxslar) holatini o'zgartiradigan yoki tovarlar, xizmatlar va moliyaviy aktivlar bilan ayirboshlashiga ko'maklashadigan ishlab chiqarish faoliyatining natijasi hisoblanadi.

**Ko'rsatilgan bozor xizmatlari
hajmini taqqoslanishi, trln. so'm**




2020- yilning yanvar oyiga nisbatan joriy yilning sentabr oyida (diskret oy) ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 5,8 trln. so'mga o'sdi va 22,1 trln. so'mga yetdi.

Taqqoslash uchun: o'tgan yilning shu davrida ularning hajmi 4,4 trln. so'mga o'sgan va 17,9 trln. so'mga teng bo'lgan.

2020- yilning III diskret choragi yakunlariga ko'ra, ko'rsatilgan xizmatlar hajmi 56,4 trln. so'mni tashkil etib, 2019- yilning III diskret choragiga nisbatan (51,5 trln. so'm) hajmi 4,9 trln. so'mga oshdi.

Taqqoslash uchun: 2019 va 2018- yilning III diskret choraklar o'rtasidagi farqi 10,9 trln. so'mni tashkil etgan.



Xizmatlar sohasi ishlab chiqarish unumdorligi va samaradorligini oshirishga yordam beradigan turli xil faoliyat turlarini o'z ichiga oladi.

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ishlab chiqarilgan
xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari**
(2020- yilning yanvar-sentabr oylarida)

	Hajmi, mlrd. so'm	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, % da
Xizmatlar - jami	157 085,3	101,8
<i>shu jumladan:</i>		
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	9 390,0	116,4
Moliyaviy xizmatlar	33 712,2	130,4
Transport xizmatlari	38 437,3	91,0
shu jumladan: avtotransport xizmatlari	20 975,1	103,3
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	4 242,6	83,4
Savdo xizmatlari	41 268,2	100,4
Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	4 362,8	92,4
Ta'lim sohasidagi xizmatlar	5 519,0	96,3
Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	2 259,5	86,2
Ijara xizmatlari	2 941,1	94,7
Kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	2 390,6	92,2
Shaxsiy xizmatlar	3 570,7	91,6
Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	3 390,1	92,3
Boshqa xizmatlar	5 601,2	91,7

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibida eng katta ulushni savdo xizmatlari egallaydi. Shunday qilib, 2020- yilning yanvar-sentabr oylarida ularning ulushi 26,3 % ni tashkil etdi. Shu bilan birga, yuqori ko'rsatkichlar transport xizmatlari (24,5 %), moliyaviy xizmatlar (21,5 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari bo'yicha (6,0 %) qayd etildi.

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ishlab chiqarilgan
xizmatlarning tarkibi**
(2020- yilning yanvar-sentabr oylarida)

Eng yuqori ulush			Eng past ulush		
	Savdo xizmatlari	26,3 %		Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	2,8 %
		25,5 %			3,0 %
	Transport xizmatlari	24,5 %		Yashash va ovqatlanish xizmatlari	2,7 %
		28,0 %			3,1 %
	Moliyaviy xizmatlar	21,5 %		Shaxsiy xizmatlar	2,3 %
		17,6 %			2,4 %
	Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	6,0 %		Me'morchilik sohasidagi xizmatlar	2,1 %
		5,6 %			2,3 %
	Boshqa xizmatlar	3,5 %		Ijara xizmatlari	1,9 %
		3,8 %			1,9 %
	Ta'lim sohasidagi xizmatlar	3,5 %		Kompyuterlarni ta'mirlash xizmatlari	1,5 %
		3,5 %			1,7 %
	Yanvar-sentabr 2019- y.			Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	1,4 %
					1,6 %
	Yanvar-sentabr 2020- y.				


Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar ko'rsatish hajmlarining uncha katta bo'lmagan o'sishi kuzatildi, ularning ulushi atigi 1,4 % ni tashkil etdi. Shuningdek, nisbatan yuqori bo'lmagan ulush kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar - 1,5 %, ijara sohasidagi xizmatlar

Dastlabki ma'lumotlar

- 1,9 %, me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar hissasi 2,1 % ga to'g'ri keldi.

Yuqori o'sish moliyaviy xizmatlar (30,4 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (16,4 %), shuningdek savdo xizmatlari (0,4 %)da qayd etildi. Xizmatlar sohasiga taalluqli bo'lgan boshqa barcha faoliyat turlari bo'yicha o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'atlarining pasayishi kuzatilmoqda.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'atlari taqqoslanishi




Yashash va ovqatlanish xizmatlari hajmi sezilarli darajada (16,6 % ga) pasayishi qayd etildi. Shu bilan birga, sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar (13,8 % ga), transport xizmatlari (9,0 % ga), me'morchilik,

muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar (7,7 % ga), ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar (7,6 % ga), ijara xizmatlari (5,3 % ga), shuningdek ta'lim sohasidagi xizmatlar (3,7 % ga) da pasayish kuzatildi.

Transport sohasida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmining sezilarli darajada pasayishiga qaramay, xizmatlarning umumiy hajmida ularning ulushi ustun bo'lib qolmoqda - 24,5 %.

Transport turlari bo'yicha transport xizmatlarining tarkibi



Avtomobil transporti xizmatlarining ulushi 54,6 % ni tashkil etdi.


Transport xizmatlarida quvur yo'li orqali ko'rsatilgan transport xizmatlarining hajmi 18,5 % ni tashkil etdi.

O'z navbatida, transport xizmatlari umumiy hajmida temir yo'l transporti orqali ko'rsatilgan xizmatlar 15,2 % ga yetdi.

Havo transporti orqali ko'rsatilgan yuk va yo'lovchilarni tashish bo'yicha xizmatlarning ulushi 4,7 % ni, yordamchi transport faoliyati esa 7,0 % ni qayd etdi.

Avtomobil transportida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmida yo'lovchilarni tashish katta ulushga ega.

Transport xizmatlarining tashish turlari bo'yicha tarkibi
(2020-yil yanvar-sentabr oylarida)



2020- yil yanvar-sentabr oylarida avtomobil transportida yo'lovchi tashish xizmatlarining ulushi 67,0 % ga yetdi.


Avtomobil transportida ko'rsatilgan bozor xizmatlarining umumiy hajmida yuk tashish xizmatlari ulushi 33,0 % ni tashkil etdi.

Har bir mamlakatning iqtisodiy hayotida muhim o'rin tutuvchi savdo sohasi ishlab chiqarish va iste'mol o'rtasidagi aloqani ta'minlaydi, shuningdek, tovarlarni ishlab chiqarish hajmi va tarkibiga, ularning turlarini yaxshilanishiga va sifatini oshishiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

Savdo bu – tovarlarning aylanishini, ularning ishlab chiqarish sohasidan iste'mol sohasiga o'tishini ta'minlaydigan iqtisodiyot sohasidir. Ma'lum bir davlat ichida savdo tovarlarini zarur iste'molchiga yetkazib berish vazifasini bajaradi. U ulgurji va chakana savdoga bo'linadi.

2020- yilning yanvar-sentabr oylarida, ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmida savdo xizmatlarining ulushi 26,3 % ni tashkil etib, bu 41 268,2 mlrd. so'mga teng bo'ldi.

Savdo xizmatlari tarkibi, % da
(2020- yilning yanvar-sentabr oylarida)




Joriy davrda chakana savdo xizmatlari ulushi, umumiy savdo xizmatlari hajmining qariyb to'rttdan uch qismiga, aniqrog'i 67,9 % iga to'g'ri keladi.

Ulgurji savdo xizmatlarining ulushi (avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari) 25,3 % ga yetdi. Avtomobillar va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi bo'yicha xizmatlar, jumladan, avtomobillar va mototsikllarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlarni qo'shgan holda, savdo xizmatlarining umumiy hajmidagi ulushi 6,8 % ni tashkil etdi.

Boshqa hududlar bilan taqqoslaganda, chakana savdo bo'yicha xizmatlarning eng katta ulushi Qashqadaryo (86,5 %), Andijon (85,5 %), Jizzax (83,8 %), Surxondaryo (83,3 %) va Navoiy (81,2 %) viloyatlariga to'g'ri keladi.

Hududlar kesimida savdo xizmatlarining ulushi, % da (2020- yilning yanvar-sentabr oylarida)



Bu ko'rsatkich Toshkent shahrida ahamiyatsiz, uning ulushi 47,5 % ni tashkil etdi. Biroq, Toshkent shahrida ulgurji savdo xizmatlari (avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari) ulushi sezilarli darajada yuqori bo'ldi - 45,7 %. Andijon viloyatida eng kichik ulush 8,0 % qayd etildi.

Avtomobillar va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi bo'yicha xizmatlar, jumladan, avtomobillar va mototsikllarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlarni qo'shgan holda nisbatan yuqori ulush Samarqand (9,4 %), Toshkent (8,4 %), Farg'ona (7,9 %) va Navoiy (7,9 %) viloyatlarida qayd etildi.

Ushbu xizmatlarning eng kichik ulushi Surxondaryo (3,9 %), Qashqadaryo (4,6 %) va Jizzax (4,9 %) viloyatlarida qayd qilindi.

Moliyaviy xizmatlar

(2020- yilning yanvar-sentabr oylarida)

Moliyaviy xizmatlar hajmi 33 712,2 mlrd. so'mni - tashkil etdi.

Taqqoslash uchun: 2019- yilning yanvar-sentabr oylarida ularning hajmi 24 833,0 mlrd. so'mga teng bo'ldi.



Ularining umumiy xizmatlar hajmidagi ulushi 21,5 % ni tashkil etdi.

Taqqoslash uchun: 2019- yilning yanvar- sentabr oylarida ularning ulushi 17,6 % ni tashkil etdi.

O'tgan yilning shu davriga nisbatan moliyaviy xizmatlar hajmini 8 879,2 mlrd. so'mga ko'payishi kuzatildi.




Moliyaviy xizmatlarning o'sishi 30,4 % ni tashkil etdi.

Taqqoslash uchun: 2019- yilning yanvar- sentabr oylarida ularning o'sish sur'ati 161,4 % ga yetgan.

Moliyaviy xizmatlar hajmi - moliyaviy vositachilik hisobidan olingan foizli daromadlar hajmi (xizmatlar uchun belgilangan to'lovlar miqdorida), shuningdek, moliya muassasasi tomonidan ssuda berish yoki depozitni saqlash bo'yicha xizmatlari uchun to'lanadigan haq hisobiga ko'ra olinadi.

Zamonaviy bank xizmatlarini taqdim etish uchun shart-sharoitlar yaratish uchun innovatsion bank texnologiyalarining joriy etilishi chakana xizmatlarni ko'rsatishga ixtisoslashgan raqamli banklar va ularning bo'linmalarining faoliyatini tashkil etish, masofadan turib bank xizmatlarini takomillashtirish va to'lov tizimini yanada rivojlantirish moliyaviy xizmatlarning jadal rivojlanishiga xizmat qilmoqda.

Moliyaviy xizmatlar hajmini hududlar kesimida taqqoslanishi



Kuzatilayotgan davrda ayrim hududlarga nisbatan, Toshkent shahrida moliyaviy xizmatlar hajmi 4 535,5 mlrd.so'mga o'sdi va 18 091,5 mlrd.so'mga yetdi.


Shu bilan birga, Farg'ona (543,0 mlrd. so'mga), Toshkent (458,6 mlrd. so'mga), Andijon (403,8 mlrd. so'mga), Samarqand (394,4 mlrd. so'mga), Buxoro (376,7 mlrd. so'mga) va Surxondaryo (329,3 mlrd. so'mga) viloyatlarining hajmi o'sishi qayd etildi.

Moliyaviy xizmatlar tarkibi, % da
(2020- yilning yanvar-sentabr oylarida)

Moliyaviy xizmatlar umumiy hajmida sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlarning ulushi 91,3 % ni tashkil etadi.

Joriy davrda sug'urta xizmatlarining ulushi 5,3 % oralig'ida qayd etildi.


Moliyaviy va sug'urtalash xizmatlariga nisbatan yordamchi xizmatlarning umumiy moliyaviy xizmatlar hajmidagi ulushi yuqori ko'rsatkichga ega emas va u 3,4 % ni tashkil etadi.



Surxondaryo (95,2 %), Sirdaryo (94,7 %), Farg'ona (94,1%), Jizzax (93,8 %), Navoiy (92,8 %) viloyatlari va Qoraqalpog'iston Respublikasida

(94,7 %) sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlarning ulushi ahamiyatli bo'ldi. Eng past ko'rsatkich Andijon (86,9 %) va Toshkent (90,4 %) viloyatlarida qayd etildi.


Hududlar kesimida moliyaviy xizmatlar tarkibi, % da (2020- yilning yanvar-sentabr oylarida)



Hududlar o'rtasida moliyaviy xizmatlar tarkibida sug'urta xizmatlari hajmi Toshkent (7,7 %), Namangan (6,3 %), Navoiy (6,1 %), Buxoro (5,3 %) viloyatlarida va Toshkent (5,6 %) shahrida ustunlik qiladi.

Sug'urta xizmatlarining eng past ko'rsatkichlari Andijon (3,4 %), Surxondaryo (3,8 %), Samarqand, Sirdaryo (4,0 %) viloyatlarida, shuningdek, Qoraqalpog'iston Respublikasida (3,9 %) kuzatildi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari



2020- yilning yanvar-sentabr oylarida aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining hajmi 9 390,0 mlrd. so'm darajasida belgilandi.

O'tgan yilning mos davriga nisbatan ushbu turdagi xizmatlarning o'sish sur'ati 116,4 % ga yetdi.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining umumiy hajmdagi ulushi 6,0 % ni tashkil etdi.


Aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining tarkibi



Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmida eng katta ulushni telekommunikatsiya xizmatlari (simli va mobil aloqa xizmatlari, Internet tarmog'i, yo'ldoshli aloqa xizmatlari va boshqalar) egallab, 78,3 % ni tashkil etdi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining umumiy hajmidagi ulushida kompyuter dasturlashtirish, maslahat berish xizmatlari va boshqa yordamchi xizmatlar - 7,5 %, boshqa aloqa xizmatlari - 5,0 %, axborot sohasidagi xizmatlar - 4,7 %, shuningdek, noshirlik xizmatlari - 4,5 % dan tashkil etdi.

**Aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining o'sish sur'atlari,
o'tgan yilga nisbatan, % da
(2020- yil yanvar-sentabr oylarida)**



Yuqori o'sish sur'atlari Toshkent (133,5 %), Jizzax (114,7 %), Sirdaryo (113,9 %), Farg'ona (112,9 %) va Xorazm (111,8 %) viloyatlari, shuningdek, Toshkent shahrida (120,3 %) qayd etildi.

O'tgan yilning mos davriga nisbatan aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining uncha yuqori bo'lmagan o'sish sur'ati Buxoro (3,8 %), Surxondaryo (8,2 %) viloyatlarida va Qoraqalpog'iston Respublikasida (7,9 %) qayd etildi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining eng katta hajmi Toshkent shahrida qayd etildi - 5 266 mlrd. so'm. Buning sababi shundaki, ushbu hududda shu sohada faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning aksariyati ro'yxatdan o'tgan.

Hududlar kesimida aloqa va axborotlashtirish sohasidagi xizmatlarning hajmi

(2020- yilning yanvar-sentabr oylarida)




Shu bilan birga, ko'rsatilgan aloqa va axborotlashtirish bozor xizmatlarining nisbatan katta hajmi Farg'ona (547,5 mlrd. so'm), Samarqand (509,4 mlrd. so'm), Andijon (413,3 mlrd. so'm), Namangan (368,4 mlrd. so'm), Qashqadaryo (362,8 mlrd. so'm) va Toshkent (325,2 mlrd. so'm) viloyatlarida kuzatildi.

Joriy davrda ushbu turdagi xizmatlarning eng past ko'rsatkichlari Sirdaryo (132,4 mlrd. so'm), Jizzax (171,4 mlrd. so'm) va Navoiy (181,0 mlrd. so'm) viloyatlarida qayd etildi.

Hududlar kesimida aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining umumiy hajmida telekommunikatsiya xizmatlarining ulushi, % da
(2020- yilning yanvar-sentabr oylarida)

Telekommunikatsiya xizmatlarining eng yuqori ko'rsatkichlari Jizzax (99,4 %), Andijon (97,7 %), Sirdaryo (97,4 %), Namangan (97,3 %), Navoiy (97,2 %) va Samarqand (97,0 %) viloyatlarida qayd etildi.




Toshkent shahri – yetarli darajada rivojlangan axborot-kommunikatsiya infratuzilmasiga ega hududdir. Boshqa hududlar bilan taqqoslaganda bu yerda kompyuter dasturlashtirish, maslahat berish xizmatlari va boshqa yordamchi xizmatlar (12,6 %), axborot sohasidagi xizmatlar (8,0 %), dasturlar tuzish va teleradioeshittirishlar bo'yicha xizmatlar (7,2 %), noshirlik xizmatlari (6,8 %), kino-videofilmlar va televideniya dasturlari ishlab chiqarish bo'yicha xizmatlar, ovoz yozish va musiqa asarlarini nashr qilish bo'yicha xizmatlar (1,2 %) da eng yuqori ko'rsatkichlar qayd etilgan bo'lib, aloqa va axborotlashtirish xizmatlari tarkibida esa telekommunikatsiya xizmatlari ulushi Toshkent shahrida nisbatan past bo'lgan, bu 64,2 % ni tashkil etdi.

2019- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan, telekommunikatsiya xizmatlarining 15,7 % ga yuqori o'sishi kuzatilmoqda.

Taqqoslash uchun: 2019- yil yanvar-sentabr oylarida ularning ulushi 107,0 % ni tashkil etdi.

**Hududlar kesimida telekommunikatsiya xizmatlarining o'sish
sur'atlarini taqqoslanishi, % da**



2020- yil yanvar-sentabr oylarida telekommunikatsiya xizmatlarining Toshkent (138,7 %), Sirdaryo (115,0 %), Jizzax (115,0 %), Farg'ona (113,8 %) viloyatlarida, shuningdek, Toshkent shahrida (119,1 %) yuqori o'sish sur'atlari qayd etildi.

Taqqoslash uchun: 2019- yil yanvar-sentabr oylarida ushbu xizmat turining o'sishi Toshkent viloyatida 7,3 %, Sirdaryoda 11,3 %, Jizzaxda 11,2 %, Farg'onada 11,8 % va Toshkent shahrida 2,2 % ni tashkil etdi.


Ma'lumki, fuqarolarni yuqori sifatli va hamyonbop narxlardagi ta'lim bilan ta'minlash, jamiyat taraqqiyotini, uning kelajagini aniq belgilab beradigan vazifadir.

Ta'lim sohasidagi xizmatlar

2020- yilning yanvar-sentabr oylarida ta'lim sohasidagi xizmatlar hajmi 5 519,0 mlrd. so'mga yetib, bozor xizmatlari umumiy hajmidagi ulushi 3,5 % ni tashkil etdi. O'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 96,3 % ni tashkil etdi.



Hududlar kesimida ta'lim sohasidagi xizmatlarning hajmi, mlrd. so'm (2020- yilning yanvar-sentabr oylarida)



Ta'lim sohasidagi xizmatlarning yuqori hajmi Samarqand (400,6 mlrd. so'm), Farg'ona (378,0 mlrd. so'm), Toshkent (360,3 mlrd. so'm) va Andijon (332,6 mlrd. so'm) viloyatlari, hamda Toshkent shahrida (2 356,0 mlrd. so'm) qayd etildi.


Nisbatan past ko'rsatkichlar Sirdaryo (76,4 mlrd. so'm), Navoiy (116,8 mlrd. so'm), Jizzax (124,0 mlrd. so'm), Xorazm (169,7 mlrd. so'm) va Surxondaryo (185,1 mlrd. so'm) viloyatlarida belgilandi.

Yashash bo'yicha xizmatlar hajmi, qisqa muddatli turar joy bilan ta'minlash bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar (mehmonxonalar, otellar, motellar va boshqa turar joylar) qiymatini o'z ichiga oladi.

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar (2020- yilning yanvar-sentabr oylarida)

O'tgan yilning shu davriga nisbatan yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning o'sish sur'ati atigi 83,4 % ni tashkil etdi, ularning hajmi esa 4 242,6 mlrd. so'mga teng bo'lgan.

Ushbu davrda ularning bozor xizmatlari umumiy hajmidagi ulushi atigi 2,7 % ni tashkil etdi.



2019- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan turar joy va umumiy ovqatlanish xizmatlari hajmi 173,1 mlrd. so'mga kamaydi.

Oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar - oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazib berish bo'yicha qo'yilgan ustamadan tashqari, ovqat tayyorlashda ishlatilgan va qayta ishlanmagan holda sotilgan mahsulotlar qiymatini o'z ichiga oluvchi aylanma qiymatidir.

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar tarkibi
(2020- yilning yanvar-sentabr oylarida)



Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning umumiy hajmida oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlarning ulushi 83,8 % bilan ustunlik qiladi.

2020- yilning yanvar-sentabr oylarida yashash bo'yicha xizmatlar ulushi 16,2 % ni tashkil etdi.

Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi bu - sog'liqni saqlash muassasalarining tibbiy va sanitariya xizmatlari, shuningdek, tashkilotlar va tibbiyot korxonalari, stomatologiya, fizioterapevtik, gomeopatik poliklinikalar, kosmetologiya klinikalari, giyohvand moddalarni iste'mol qiluvchilarni davolash ambulatoriyalari, laboratoriya va sanitariya-epidemiologiya profilidagi muassasalar tomonidan ko'rsatilgan bozor xizmatlarining qiymatidir.

Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar

(2020- yilning yanvar-sentabr oylarida)

2020- yilning yanvar-sentabr oylarida sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlarning hajmi 2 259,5 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Xizmatlar umumiy hajmida ularning ulushi 1,4 % ni tashkil qildi.

O'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 86,2 % ni tashkil etdi.



Xizmatlar hajmi

• 2 259,5
mlrd. so'm


O'tgan yilga
nisbatan o'sish
sur'ati

• 86,2 %

Xizmatlarning
jami hajmidagi
ulushi

• 1,4 %

Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlarning umumiy hajmida hududlar ulushini taqqoslanishi, % da




■ Yanvar-sentabr 2019- y.

■ Yanvar-sentabr 2020- y.

Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlarning umumiy hajmida Toshkent shahrining ulushi yuqori - 43,4 %. Shu bilan birga, nisbatan yuqori ulush Toshkent (8,4 %), Farg'ona (7,1 %) va Samarqand (6,6 %) viloyatlarida qayd etildi.

Joriy davrda ushbu ko'rsatkichning ulushi nisbatan katta bo'lmagan hududlar Sirdaryo (1,7 %), Navoiy (2,2 %), Jizzax (2,5 %), Surxondaryo (2,9 %) va Xorazm (3,4 %) viloyatlari, shuningdek, Qoraqalpog'iston Respublikasi (2,1 %) hissasiga to'g'ri keladi.

Hududlar kesimida ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibi, % da (2020- yilning yanvar-sentabr oylarida)



Xizmatlarning umumiy hajmida Toshkent shahrining ulushi eng ahamiyatli bo'lib, 36,7 % ni tashkil etadi. Bu aholining real daromadlari boshqa viloyatlardan ko'ra yuqoriroq ekanligi bilan izohlanadi.

Shuningdek, eng katta ulush Toshkent (7,6 %), Samarqand (6,5 %), Farg'ona (6,1 %) va Andijon (5,2 %) viloyatlarida qayd etildi.

Xizmatlar sohasining nisbatan past ko'rsatkichlari Sirdaryo (1,5 %), Jizzax (2,2 %), Navoiy (2,6 %), Xorazm (3,0 %) viloyatlari va Qoraqalpog'iston Respublikasida (2,9 %) kuzatildi.


Ma'lumot uchun: 2019- yilning yanvar-sentabr oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmida Toshkent shahrining ulushi 34,6 % ni tashkil etgan.

Sirdaryo viloyatining ulushi esa eng past ekanligi - 1,4 % kuzatilgan.

Hududlar kesimida ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'atlari, o'tgan yilga nisbatan % da (2020- yilning yanvar-sentabr oylarida)

Ushbu davr mobaynida nisbatan yuqori o'sish sur'atlari Sirdaryo (105,9 %), Andijon (104,5 %), Navoiy (104,3 %), Namangan (103,3 %), Toshkent (103,2 %), Farg'ona (103,1 %) va Buxoro (103,0 %) viloyatlarida, Qoraqalpog'iston Respublikasi (103,5 %) va Toshkent shahrida (106,9 %) qayd etildi.

Nisbatan yuqori bo'lmagan o'sish Xorazm, Surxondaryo, Samarqand (2,3 %), Qashqadaryo (2,7 %) va Jizzax (2,9 %) viloyatlarida qayd etildi.



Ko'rilayotgan davrda, resurslardan samarali foydalanish natijasida hududlar bo'yicha Toshkent shahri ko'rsatilgan bozor xizmatlarining umumiy hajmini o'sishiga ta'sir ko'rsatdi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan ushbu hududda ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 8 800,2 mlrd. so'mga oshdi va 57 611,3 mlrd. so'mga yetdi.

Hududlar bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari (2020- yilning yanvar-sentabr oylarida)

	Hajmi, mlrd. so'm	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, % da	
		2019- y.	2018- y.
O'zbekiston Respublikasi *)	157 085,3	101,8	112,7
Qoraqalpog'iston Respublikasi	4 574,5	103,5	114,9
<i>viloyatlar:</i>			
Andijon	8 214,7	104,5	111,9
Buxoro	6 853,7	103,0	111,6
Jizzax	3 518,5	102,9	116,2
Qashqadaryo	7 233,7	102,7	112,1
Navoiy	4 129,7	104,3	112,8
Namangan	6 345,5	103,3	111,1
Samarqand	10 138,9	102,3	109,4
Surxondaryo	5 645,4	102,3	111,1
Sirdaryo	2 301,6	105,9	121,1
Toshkent	11 930,5	103,2	108,4
Farg'ona	9 650,3	103,1	110,0
Xorazm	4 711,2	102,3	114,0
Toshkent shahri	57 611,3	106,9	116,7

*) hududlar bo'yicha taqsimlanmaydigan hajmlarni qo'shgan holda

Shu bilan birga, nisbatan yuqori ko'rsatkichlar Toshkent (11 930,5 mlrd. so'm), Samarqand (10 138,9 mlrd. so'm), Farg'ona (9 650,3 mlrd. so'm) va Andijon (8 214,7 mlrd. so'm) viloyatlarida qayd etildi.

Ma'lumki, zamonaviy O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish istiqbollari, milliy va mahalliy manfaatlarni hisobga olgan holda, respublikaning har bir iqtisodiy tumani va viloyatlarining barcha resurslardan oqilona foydalanishiga bog'liqdir.

Xizmatlar sohasining rivojlanish darajasi aholining hududiy va ijtimoiy harakatchanligini, yangi xo'jalik hududlarini o'zlashtirish, ishlab chiqarish samaradorligini va moddiy mahsulotlar iste'molini oshirishni ta'minlaydi.

Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmining har oyda o'sishi kuzatilmoqda.

Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlarining asosiy ko'rsatkichlari

2020- yilning yanvar-sentabr oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 4 600,7 ming so'mga yetdi.


O'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 99,9 % ni tashkil etdi.

Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlar hajmi - 4 600,7 ming so'm

O'sish sur'ati, 2019- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan - 99,9 %

Hajmning o'sishi, 2019- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan - 391,8 ming so'mga

Hududlar kesimida aholi jon boshiga xizmatlar hajmi, ming so'm
(2020-yilning yanvar-sentabr oylarida)



Ushbu xizmatlar hajmi ko'rsatkichi hududlar o'rtasida Toshkent shahrida 22 047,1 ming so'mdan Surxondaryo viloyatida 2 131,8 ming so'm-gacha oralig'ida bo'ladi.

Ushbu mintaqada aholi jon boshiga xizmatlar hajmi ko'rsatkichi nisbatan pastligi bu hududda aholi sonining yuqori ko'rsatkichlariga bog'liqligidir.

Taqqoslash uchun: Navoiy viloyatida o'rtacha doimiy aholi soni (2020 yilning yanvar-sentabr oylarida 1 003,2 ming kishini tashkil etdi) uncha ko'p bo'lmasada, biroq aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi nisbatan yuqori. Ko'rib chiqilayotgan davrda u 4 116,5 ming so'mni tashkil etdi.


Xizmatlar sohasi ishlab chiqarish unumdorligi va samaradorligini oshirishga yordam beradigan turli faoliyatlarni o'z ichiga oladi.

Xizmatlar sohasida iqtisodiy o'sishning asosiy omillari, aynan, yangi ilmiy bilimlar, aqliy kapital, axborot texnologiyalari, moliya sektori xizmatlari, konsalting va boshqalar shakllanishi bilan izohlanadi.

**2020- yilning 1- oktabr holatiga ko'ra,
xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan
korxona va tashkilotlar to'g'risida ma'lumot**
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



**2020- yilning 1- oktabr holatiga ko'ra, faoliyat
ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning tarkibi, % da**
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)




2020- yilning 1- oktabr holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning ulushi - 65,1 %, sanoat - 17,6 %, qurilish - 8,8 % ga yetdi.

Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi sohasi 8,5 % ga to'g'ri keldi.

2020- yilning 1- oktabr holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tarkibi, % da
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar tarkibida, savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxona va tashkilotlar yuqori ulushni (41,9 %) egallaydi.

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmat ko'rsatuvchi korxona va tashkilotlarning ulushi 9,6 % ni tashkil etdi.



Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar tarkibida tashish va saqlash faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxona va tashkilotlarning ulushi 5,7 % ga yetdi.

Axborot va aloqa faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxona va tashkilotlarning jami xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar tarkibidagi ulushi 3,0 % ga teng bo'ldi.

Sog'liqni saqlash, shuningdek, ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning ulushi 3,0 % ni tashkil etdi.

Ma'lumot uchun: 2019- yilning 1- oktabr holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida 253,4 mingta korxona va tashkilotlar faoliyat ko'rsatgan. Ularning umumiy tarkibida savdo xizmatlari – 37,6 %, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar - 9,7 %, tashish va saqlash - 6,0 %, axborot va aloqa - 3,1 %, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish - 3,0 %, hamda boshqa turdagi xizmat ko'rsatuvchi tashkilotlar – 40,6 % ni tashkil etgan.

2020- yilning 1- oktabr holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar sonining ko'payishi va o'sishi

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



O'tgan yilning shu davriga nisbatan xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni 42,9 mingtaga ko'paydi.

Taqqoslash uchun: 2019- yil 1- oktabr holatiga ko'ra, ularning soni 43,9 mingtaga ko'paygan.

Kuzatilayotgan davrning o'tgan yilga nisbatan savdo faoliyati sohasidagi yuqori o'sishi – 30,1 % ekanligi aniqlandi. Ushbu sohada faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni 28,0 mingtaga ko'paydi va 124,1 mingtaga yetdi.



Shuningdek, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar bilan bog'liq faoliyatda ham o'sish kuzatildi - 16,5 %. Ushbu sohada faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni 4,0 mingtaga ko'paydi va 28,6 mingtani tashkil etdi.

2020- yilning 1- oktabr holatiga ko'ra, faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning umumiy sonida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi, % da
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



2020- yilning 1- oktabr holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar umumiy sonida kichik tadbirkorlik subyektlarining hisssasi 79,1 % ga to'g'ri keladi.

Taqqoslash uchun: 2019- yilning 1- oktabr holatiga ko'ra, ularning ulushi 75,7 % ni tashkil etdi.

Kichik tadbirkorlik subyektlariga tegishli faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning o'sishi, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar umumiy sonining o'sishiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

**2020- yilning 1- oktabr holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida
faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik
subyektlari to'g'risida ma'lumot**
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



2020- yilning 1- oktabr holatiga ko'ra, o'tgan yilning shu davriga nisbatan xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari soni 42 610 taga ko'paydi.

Natijada, ularning soni 234 304 tani tashkil etdi va o'sishi esa 22,2 % ga oshdi. Faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining umumiy sonida xizmatlar sohasida band bo'lganlarning ulushi 59,9 % ga yetdi.

Taqqoslash uchun: o'tgan yilning shu davrida xizmatlar sohasida band bo'lgan kichik korxona va tashkilotlar sonining ulushi 59,3 % ekvivalentida qayd etildi.



Xizmatlar sohasini rivojlantirish ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotini shakllantirish uchun eng muhim shartlardan biri hisoblanadi. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan bozor islohotlarining ijobiy natijalari xizmatlar sohasini yanada rivojlantirish, jamiyatni rivojlantirishning eng muhim ijtimoiy-iqtisodiy vazifalarini hal **etish**da uning rolini oshirish bilan uzviy bog'liqdir.

Xizmatlar sohasi statistikasi boshqarmasi

Tel.: 71-202-80-59